



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar-noyabr






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2 858** tani tashkil etib, 2022-yil 1-dekabrga nisbatan **9** taga ko'paygan (o'sish sur'ati **100,3 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **85** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 773** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **9 229,5 mlrd.** so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,0 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **293,9 mlrd.** so'mni (o'sish sur'ati **117,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **8 935,6 mlrd.** so'mni (o'sish sur'ati **105,7 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 241,5 mlrd.** so'mni (o'sish sur'ati **103,0 %**) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mlrd. So'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	9 229,5	106,0	293,9	117,1	8 935,6	105,7
Nukus shahri	1 848,0	105,7	76,3	104,6	1 771,8	105,8
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	780,4	105,3	14,3	86,8	766,1	105,7
Beruniy	515,0	103,7	28,1	65,0	486,9	107,4
Bo'zatov	115,6	104,8	0,2	68,3	115,4	104,9
Qorao'zak	406,9	104,8	1,0	85,8	405,9	104,9
Kegeyli	356,8	105,2	1,2	90,1	355,6	105,3
Qo'ng'irot	749,5	105,2	16,7	95,5	732,8	105,4
Qonliko'l	352,7	105,1	0,4	55,2	352,4	105,2
Mo'ynoq	99,3	105,5	0,4	68,5	98,9	105,8
Nukus	274,6	105,7	0,8	60,6	273,9	105,9
Taxiatosh	345,2	125,6	82,9	369,9	262,3	103,9
Taxtako'pir	296,4	105,0	0,7	70,7	295,7	105,1
To'rtko'l	1 057,8	106,5	35,3	106,1	1 022,6	106,6
Xo'jayli	817,0	105,1	12,8	88,6	804,2	105,4
Chimboy	467,1	105,7	9,6	91,4	457,4	106,0
Shumanay	200,2	104,6	0,6	67,7	199,6	104,7
Ellikqal'a	546,9	105,2	12,8	97,6	534,1	105,4

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan respublikaning Taxiatosh (**125,6 %**), To'rtko'l (**106,5 %**), Amudaryo (**105,1 %**) va Chimboy (**105,7 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **8 935,6 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **105,7 %** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,8 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)



Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **117,1 %** ga o'sdi va **293,9 mlrd. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **3,2 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)

Nukus sh.	4,1	95,9
Amudaryo	1,8	98,2
Beruniy	5,5	94,5
Bo'zatov	0,2	99,8
Qorao'zak	0,3	99,7
Kegeyli	0,3	99,7
Qo'ng'irot	2,2	97,8
Qonliko'l	0,1	99,9
Mo'ynoq	0,4	99,6
Nukus	0,3	99,7
Taxiatosh	24,0	76,0
Taxtako'pir	0,2	99,8
To'rtko'l	3,3	96,7
Xo'jayli	1,6	98,4
Chimboy	2,1	97,9
Shumanay	0,3	99,7
Ellikqal'a	2,3	97,7

■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (**99,7 %**), Bo'zatov (**99,8 %**) va Qonliko'l (**99,9 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **3,2 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiatosh (**24,0 %**), Beruniy (**5,5 %**), Nukus shahri (**4,1 %**) va To'rtko'l (**3,3 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 648,9	104,6
Nukus shahri	5 498,5	104,2
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	3 718,2	103,4
Beruniy	2 542,0	101,8
Bo'zatov	5 279,6	104,8
Qorao'zak	7 507,3	104,1
Kegeyli	4 796,1	104,4
Qo'ng'iroq	5 552,1	103,9
Qonliko'l	6 605,7	103,5
Mo'ynoq	2 963,2	104,6
Nukus	5 161,8	103,9
Taxiatosh	4 518,2	124,6
Taxtako'pir	7 618,3	109,8
To'rtko'l	4 676,6	104,7
Xo'jayli	6 397,7	103,9
Chimboy	4 054,5	104,9
Shumanay	3 463,1	103,5
Ellikqal'a	3 237,8	103,3


2023-yilning yanvar-noyabr holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 648,9 ming. so'mni** (2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **104,6 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako'pir (**7 618,3 ming. so'm**), Qorao'zak (**7 507,3 ming. so'm**) va Xo'jayli (**6 397,7 ming. so'm**) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 241,5 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **103,0 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **707,0 mlrd. so'mni (95,5 %)**, chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **534,5 mlrd. so'mni** tashkil etdi (**114,9 %**).

Shahar va tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko‘rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o‘sish sur’ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagи qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o‘rinlari, turg‘un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1241,5	103,0	707,0	95,5	534,5	114,9
Nukus shahri	165,5	104,4	102,4	105,2	63,1	103,1
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	105,9	101,2	65,6	102,1	40,3	99,8
Beruniy	90,2	106,2	40,1	76,8	50,1	152,8
Bo'zatov	28,3	101,9	22,3	131,2	6,0	56,2
Qorao'zak	51,1	102,5	28,4	92,8	22,7	118,2
Kegeyli	80,3	103,6	61,8	129,9	18,5	61,8
Qo'ng'irot	103,4	101,3	69,7	111,2	33,7	85,6
Qonliko'l	53,4	102,8	16,1	50,5	37,3	185,7
Mo'ynoq	17,1	102,2	17,1	166,2	0,0	0,0
Nukus	65,5	101,6	30,5	77,0	35,0	140,3
Taxiatosh	36,5	101,3	22,9	103,7	13,6	98,1
Taxtako'pir	45,9	102,5	23,4	85,1	22,5	129,9
To'rtko'l	154,3	102,2	69,3	74,7	85,0	145,8
Xo'jayli	75,6	103,1	46,6	103,5	29,0	102,5
Chimboy	92,3	106,0	47,7	89,4	44,6	132,5
Shumanay	27,7	102,0	17,0	102,0	10,7	102,1
Ellikqal'a	48,6	101,4	26,1	88,9	22,5	122,1

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR ALANMASI: DEHQON BOZORLARI

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **707,0 mlrd. so‘mni** tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**408,0 mlrd. so‘m**) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 408,0
	Non va non mahsulotlari 46,2
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 69,7
	Tovuq go‘shti 26,5
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 23,8
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 35,5
	Tuxum 32,0
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 20,1
	Ziravorlar 17,8
	Tuzlamalar 17,2
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 10,2
Nooziq-ovqat tovarlari	-

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **534,5 mlrd. so‘mni** tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **456,4 mlrd.so‘m**, qo‘y va echkilar – **65,2 mlrd. so‘mni**, otlar – **8,7 mlrd. so‘mni**, parrandalar – **4,2 mlrd. so‘mni** tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so‘m
 2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	262,0
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	85,7
 1 yoshgacah bo‘lgan yosh mollar	108,7
 Qo‘ylar	40,8
 Otlar	8,7
 Echkilar	24,4
 Kurka, o‘rdak, g‘oz	3,1
 Tovuqlar	1,1
 Quyonlar	-
 Qushlar	-

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023-yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 052 tani** tashkil etib, 2022-yil 1-dekabr holatiga nisbatan **34 taga** ko'paygan va o'sish sur'ati **103,3 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **1 tani**, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 051 tani** tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-noyabr oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,9 %** ni tashkil etib, **270,2 mlrd. so'mga** yetdi. 2022-yilning mos davriga nisbatan **109,9%** ga o'sdi.. Bunda savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	270,2	109,9	0,1	14,8	270,1	110,1
Nukus shahri	137,9	104,7	-	-	137,9	105,2
tumanlar:	-				-	
Amudaryo	13,5	104,6	-		13,5	104,6
Beruniy	11,1	115,7	-		11,1	115,7
Bo'zatov	1,2	147,0	-		1,2	147,0
Qoroq'ozak	5,1	123,0	-		5,1	123,0
Kegeyli	3,4	114,4	-		3,4	114,4
Qo'nig'iroq	42,4	126,5	0,1		42,4	126,2
Qonliko'l	3,0	107,1	-		3,0	107,1
Mo'ynoq	1,0	154,1	-		1,0	154,1
Nukus	1,8	178,2	-		1,8	178,2
Taxiatosh	5,3	125,5	-		5,3	125,5
Taxtako'pir	1,8	130,3	-		1,8	130,3
To'rtko'l	15,0	105,1	-		15,0	105,1
Xo'jayli	14,5	104,0	-		14,5	104,0
Chimboy	5,6	115,1	-		5,6	115,1
Shumanay	1,3	105,5	-		1,3	105,5
Ellikqal'a	6,3	106,4	-		6,3	106,4

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yil 1-dekabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45-bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **2 252,9 mlrd.** so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **197,7 %** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **891,2 mlrd.** so'm (o'sish sur'ati – **170,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **1 361,7 mlrd.** so'mni (o'sish sur'ati – **221,1 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Qaraqalpog'iston Respublikasi	2 252,9	100,0
Nukus shahri	1 461,6	64,9
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	22,2	1,0
Beruniy	595,9	26,5
Bo'zatov	0,9	0,0
Qorao'zak	1,3	0,1
Kegeyli	122,1	5,4
Qo'ng'irot	2,0	0,1
Qonliko'l	0,9	0,0
Mo'ynoq	1,2	0,1
Nukus	-	-
Taxiatosh	4,2	0,2
Taxtako'pir	0,6	0,0
To'rtko'l	16,3	0,7
Xo'jayli	3,7	0,2
Chimboy	9,8	0,4
Shumanay	0,1	0,0
Ellikqal'a	10,1	0,4

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**1 461,6 mlrd. so'm**), Beruniy (**595,9 mlrd. so'm**) va Kegeyli (**122,1 mlrd. so'm**) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishslash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdag'i tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **3 394,9 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **108,5 %** ni tashkil qildi.



Savdo aylanmasi ulushi

 Yirik korxonalar

 Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **3 054,7 mlrd. so'mni** tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **110,9 %ga** to'g'ri keldi. Respublikada ushu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **90,0%** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Nukus shahrida (**106,2 %**) va Taxiatosh tumanida (**90,2%**) kuzatildi.

2023-yil 1-dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **1 012** tani tashkil etib, 2022-yil 1-dekabr holatiga nisbatan **6** taga kamaygan, o'sish sur'ati **99,4 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 007** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- noyabr oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 394,9	108,5	340,2	90,7	3 054,7	110,9
Nukus shahri	1 525,3	110,5	11,8	106,2	1 513,5	110,5
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	74,8	111,0	-		74,8	111,0
Beruniy	188,7	111,4	-		188,7	111,4
Bo'zatov	7,2	108,5	-		7,2	108,5
Qorao'zak	50,7	109,0	-		50,7	109,0
Kegeyli	22,5	122,5	-		22,5	122,5
Qo'ng'irot	137,1	111,9	-		137,1	111,9
Qonliko'l	72,0	107,6	-		72,0	107,6
Mo'ynoq	111,4	110,1	-		111,4	110,1
Nukus	56,1	109,1	-		56,1	109,1
Taxiatosh	425,8	95,0	328,3	90,2	97,5	115,8
Taxtako'pir	35,2	109,9	-		35,2	109,9
To'rtko'l	380,7	111,8	-		380,7	111,8
Xo'jayli	101,0	111,5	-		101,0	111,5
Chimboy	74,0	111,0	-		74,0	111,0
Shumanay	3,3	109,4	-		3,3	109,4
Ellikqal'a	129,1	110,0	-		129,1	110,0



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: 61 222-67-45